Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil yanvar– avgust holatiga**

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rstayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **209 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarninig ulushi **0,1 f.p. ko'paydi.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **2,9 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust oyida viloyatda 3,7 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 695 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,0 % ga kamaygan hamda ularning soni 858 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3,1 mingta (11,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 30,1 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (11,2 %), Zangiota (9,7 %) va Toshkent (7,1 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda*



## *Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi*

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)*

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---|---|---|---|---|
| | birlikda | jamiga nisbatan % | birlikda | jamiga nisbatan % |
| **Toshkent viloyati** | **33885** | **100,0** | **30063** | **100,0** |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqqo'rg'on | 828 | 2,4 | 693 | 2,3 |
| Ohangaron | 783 | 2,3 | 698 | 2,3 |
| Bekobod | 927 | 2,7 | 798 | 2,7 |
| Bo'stonliq | 1664 | 4,9 | 1335 | 4,4 |
| Bo'ka | 1111 | 3,3 | 859 | 2,9 |
| Quyichirchiq | 886 | 2,6 | 805 | 2,7 |
| Zangiota | 3386 | 10,0 | 2884 | 9,6 |
| Yuqorichirchiq | 1924 | 5,7 | 1837 | 6,1 |
| Qibray | 3519 | 10,4 | 3343 | 11,1 |
| Parkent | 1605 | 4,7 | 1522 | 5,1 |
| Piskent | 886 | 2,6 | 812 | 2,7 |
| O'rtachirchiq | 1618 | 4,8 | 1489 | 5,0 |
| Chinoz | 1105 | 3,3 | 1052 | 3,5 |
| Yangiyo'l | 1682 | 5,0 | 1443 | 4,8 |
| Toshkent | 2434 | 7,2 | 2116 | 7,0 |
| *shaharlar:* | | | | |
| Nurafshon | 826 | 2,4 | 768 | 2,6 |
| Olmaliq | 1438 | 4,2 | 1355 | 4,5 |
| Angren | 2303 | 6,8 | 1816 | 6,0 |
| Bekobod | 983 | 2,9 | 929 | 3,1 |
| Ohangaron | 830 | 2,4 | 740 | 2,5 |
| Chirchiq | 1909 | 5,6 | 1804 | 6,0 |
| Yangiyo'l | 1238 | 3,7 | 965 | 3,2 |

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi,** % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,7 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 11,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,4 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 19,0 % sanoatda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,3 % qurulishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,**
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da*




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi***
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda*



2018 yil yanvar-avgust holatiga 3744 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (344 ta), Qibray (334 ta), Toshkent (247 ta) va Yangiyo'l tumanlariga (230 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (89 ta), Bekobod (96 ta), Ohangaron (110 ta) va Bo'ka tumanlarida (114 ta) hamda Ohangaron (85 ta) va Bekobod shaharida (106 ta) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni,** birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (839 ta), savdoda (723 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (595 ta) va qurilish (427 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (62 ta), axborot va aloqada (73 ta) va tashish va saqlashda (130 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-avgust holatiga. | 2018 yil yanvar-avgust holatiga. |
|---|---|---|
| **Jami:** | **3049** | **3744** |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 646 | 595 |
| Sanoat | 765 | 839 |
| Qurilish | 227 | 427 |
| Savdo | 537 | 723 |
| Tashish va saqlash | 114 | 130 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 281 | 309 |
| Axborot va aloqa | 45 | 73 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 60 | 62 |
| Boshqa turlari | 374 | 586 |

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 sentyabr holatiga 26,7 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,7 mingta, oilaviy korxonalar – 1,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17,0 mingta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 0,06 mingtani va boshqalar 2,5 mingtani tashkil etadi.






"O'ZBEKENERGO" AKSIYADORLIK JAMIYATI



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 751 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 178 taga yoki 31,1 % ga o’sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalardan 434 tasi qo’shma korxonalar, 317 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o’sish dinamikasi,** birlikda




**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo’shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni,** birlikda









Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Zangiota tumani 96 ta (12,8 %), Qibray tumani 84 ta (11,2 %) va Yuqorichirchiq tumani 73 ta (9,7 %) hamda Angren shahri 60 ta (8,0 %) hissalariga to’g’ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekobod 4 ta (0,5 %), Piskent va Bo'ka 6 tadan (0,8 %), Oqqo'rg'on 10 ta (1,3 %), Quyichirchiq 14 ta (1,9 %) va Chinoz tumanlari 17 ta (2,3 %) hamda Bekobod shahri 5 ta (0,7 %) hissalariga tog’ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni,** birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma’lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko’rsak eng ko’p sanoatda 470 ta (62,6%), savdoda 107 ta (14,2%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 65 ta (8,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 54 ta (7,2%) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,1%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (1,0%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (1,7%), tashish va saqlashda 16 ta (2,1%) hamda qurilishda 18 ta (2,4%) tashkil qilgan. Shundan ko’rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to’gri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-avgast oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 149 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98 taga ko'paygan yoki 2,9 baravarga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 43 ta, Rossiya Federatsiyasi –26 ta, Turkiya Respublikasi –22 ta, Qozog'iston Respublikasi - 18 ta va Janubiy Koreya Respublikasi - 9 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Turkmaniston, Germaniya Federativ Respublikasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Daniya Qirolligi, Isroil davlati, Latviya Respublikasi, Moldova Respublikasi, Norvegiya Qirolligi, Pokiston Islom Respublikasi, Polsha Respublikasi, Angilya, Singapur Respublikasi, Suriya Arab Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Birlashgan Arab Amirligi, Ukraina va Amerika Qo'shma Shtatlarilar

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-avgast holatiga) birlikda











Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, sanoatda 89 ta, savdoda 23 ta, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 15 ta, qurilishda va boshqa turlarda 7 tadan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, tashish va saqlash 3 tadan hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni,** birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 24,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 13,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2,8 mingtasi (11,6 %) Qibray, 2,4 mingtasi (10,0 %) Zangiota, 1,8 mingtasi (7,5 %) Toshkent hamda 1,6 mingtasi (6,4 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'gri keladi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi,** ming birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24,5 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6,6 mingtasi (26,8 %) - savdoda, 5,6 mingtasi (22,8 %) - sanoatda, 3,3 mingtasi (13,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,3 mingtasi (9,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,2 mingtasi (9,0 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqa sohasida va 2,8 mingtasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-avgust holatiga 3,4 mintaga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 19,1 % ga ko’pdir. Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (329 ta), Qibray (309 ta) va Toshkent tumanlarida (221 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ohangaron (75 ta), Bekabod (94 ta), Nurafshon shaharlarida (99 ta), va Piskent (78 ta), Bekabod (94 ta), Ohangaron tumanlarida (97 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko’pi sanoatda (837 ta), savdoda (723 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida (592 ta) va qurilishda (426 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta), axborot va aloqada (72 ta) hamda tashish va saqlashda (128 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da








## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 1694 tani tashkil etib, ulardan 1516 tasi yoki 89,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda






Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 39,3 % yoki 596 tasi sanoat, 19,3 % yoki 293 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 266 tasi savdo, 15,6 % yoki 236 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 0,9 % yoki 13 tasi qurilish va tashish va saqlash, 0,7 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 5,6 % yoki 85 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** % da









**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan**

**Nashr uchun mas'ul:** **X.Igamberdiyev**
(0371) 230-86-84,83